

## DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI: MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MISOLIDA

Xudayorova Zebuniso Otanazarovna  
QK xizmatchisi, Chirchiq OTQMBYU  
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi  
[matquliyevjasur@gmail.com](mailto:matquliyevjasur@gmail.com)  
+998958304990

**Anotatsiya.** Maqolada bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan chuqur o‘zgarishlar, ochiqlik siyosati davrida davlat va din munosabatlarining ijobiy yo‘lga qo‘ylganligi hamda shu sababdan fuqarolarning totuv hayoti kafolatlanganligi qadri anglash uchun mintaqqa tarixida bo‘lib o‘tgan diniy va etnik muammolar borasida mulohaza yuritiladi va o‘z o‘rnida tinchlik qadri haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Davlat, din, etnik, “fuqarolar urushi”, TIUP, bahoiylik, vijdon erkinligi, „Hizb ut-Tahrir“, „Najot“.

Bizga ma’lumki mamlakatimizning bu yil qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 75-moddasi davlat va dinning bir-biridan ajralganligini o‘zida ifoda etadi. Shu o‘rinda ko‘pchilik shunday savolni o‘rtaga qo‘yadi: “xo‘s, ular bir-birining ishiga umuman aralashmay, bir-biri bilan muloqat qilmagan holda faoliyat yuritadimi?” degan. Yo‘q aslo unday emas. Aksincha ularning faoliyati insonlarning siyosiy va ijtimoiy hayoti va farovon turmushi bilan uzviy bog‘liq ekan, aslo ayrolik ma’nosini anglamaslik zarur. Bu yerda bizga bosh qomusimiz davlat siyosiy institut sifatida o‘z faoliyatini olib borish jarayonida, dinni quroq qilib foydalanmaydi, xalq ishonchini qozonish uchun unga siyosiy tus bermaydi va mafkura hamda siyosiy qarashlarni ommaga singdirish uchun dinga murojaat qilmaydi degan ma’noni anglash lozim bo‘lgani holda, o‘z-o‘rnida Din ishlari ham siyosatga, siyosiy hokimiyatga intilmaydi degan ma’nolarni anglatadi. Nega bu masala dolzarb, sababi biz qadim o‘tmishimizdan beri mintaqamiz hududida bir nechta davlat va xalqlar tarixini ko‘rib kelgan turon yurtimiz. Bizning davlatda bugungi kunda 2300 ga yaqin diniy tashkilotlar mavjud bo‘lib, aksari musulmon bo‘lsada, bir nechta boshqa din vakillarining e’tiqodlari masalasi yuzasidan kelib chiqqan holda 16 ta Konfessiya faoliyat yuritishini ham qayd qilish joiz. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilar ekan ularning har biri shu mamlakat fuqarolari sifatida barcha huquqlaridan, jumladan vijdon erkinligi kafolatiga ham egadirlar. Bugun siz bilan muhokama qilmoqchi bo‘lgan mavzuyimni asl mag‘zga ham yetib qoldik, ya’ni ko‘p

millatli davlatda dinning siyosiylashi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi masalasini qardoshimiz va yon qo'shnimiz Tojikiston va tojik xalqining boshidan o'tgan og'riqli yillar misolida ko'rib chiqamiz.

Ushbu 1991-yil 9-sentabrda SSSR tarkibidan ajralib chiqdi, ungacha o'z tarixida bir nechta davlatchilik tuzilmalariga ega bo'lgan, ma'lum muddat O'z SSR tarkibida ham bo'lgan ushbu davlat Markaziy Osiyoda aholisining 98%i ([AQSh Davlat departamentining](#) 2009-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, Tojikiston aholisining 99 foizi musulmonlar (95 foizi - [sunniylar](#), 5 foizi - [shialar](#) va bir qismi [so'fiylar](#)))musulmon ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Tojikiston Mustaqillikga erishishi bilan unda diniy-siyosiy muammolar vujudga kela boshladi. Mamlakat unitar davlat bo'lib, yagona umumiylar hududga ega, ammo uning ma'muriy tuzilishida mavjud bo'lgan ikkita viloyatdan tashqari bitta Tog'li Badaxshon muxtor viloyati mavjud <sup>1</sup>va ayni ushbu viloyat keyinchalik etnik, diniy va siyosiy mojarolar markazi bo'lib qoldi. 1991-yildan 1997- yilgacha mamlakatda turli etnik, diniy va mahalliy urug'-aymoqchilik an'analariga sodiq mutaassib guruqlar o'rtaida qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Ushbu to'qnashuvlarga sabab, Tojikiston ham boshqa Sobiq Ittifoq davlatlari qatorida XX asr dekolonizatsiya (kolonizatsiyaning parchalanishi) jarayonining ikki bosqichiga guvoh bo`ldi: Ikkinchisi Jahon Urushi yakunlangandan keyin va ikkinchisi 1990-yillarda Sovuq Urush tugagandan so`ng. Har ikki bosqichda ham kolonial kuchlar ketgandan so`ng uchinchi dunyo mamlakatlarida etnik urushlar yuz berishi odat tusiga kirib qoldi. Tojikiston ham bundan mustasno emas. Tojikiston o'z mustaqilligini SSSR parchalanishi arafasida, 1991-yil 9-sentyabr kuni qo'lga kiritgan edi. Bu Tojikiston tarixidagi ilk o'zini mustaqil boshqaruvchi davlat bo`ldi. Biroq mustaqillikdan ko`p o'tmay Tojikiston yangi davlatning mo`rt ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va tashqi kuchlar ta`siri tufayli noroziliklar to`lqini ostida qolib ketdi. Fuqarolar urushining tamal toshi 1989-yildayoq qo'yib bo`lingan edi. O'sha yilning may oyida Tojikistonga armanlarning kelgani va ularga yangi uylar ajratilgani haqida mish-mishlar tarqaldi. 1989-yil yanvardagi kuchli zilzila natijasida Hisor tumanidagi minglab odamlar boshpanasiz qolishgan va tojik hukumati bu tabiiy ofat asoratlarini bartaraf etishda yetarlicha imkon topolmay qiynalayotgan edi. Tumanning Sharara qishlog'i 17 metrli tuproq bilan ko`milib qoldi, qishloqning butun 600 aholisi xalok bo`ldi. Ayni yilda Armanistonda ham 25,000 kishining umriga zomin bo'lgan zilzila ro'y bergan edi. Moskva minglab uysiz qolgan armanlarni boshpana bilan ta'minlash maqsadida ularni butun Sovet Ittifoqi bo`ylab tarqatib tashlash harakatiga tushib qoldi. Shu qatorida, ko`plab armanlar Tojikistonga ham evakuatsiya qilindi. Non yetishmasligi, shahar transportining to`xatab qolganligi, kamiga armanlarni ko`chirilishi Dushanbe va

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 8-Jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2000 y.

boshqa shaharlarda isyonkor kayfiyatga sabab bo`ldi. Ishsiz, norozi yoshlar ko`cha bezorilariga aylana boshladilar, ular hukumat binolariga toshlar bilan xujum qilib turishni odad qildilar. Tumanlardan ham ishsiz aholi oqib kela boshladi. Ishchilar va askarlardan tuzilgan himoya guruhlari hukumatga bezorilarga qarshi kurashda yordam bera boshlashdi. Bezorilar Tojikiston Markaziy Qo`mitasini mamlakat boshqaruvi va iqtisodiyotni eplolmaslikda ayblardilar.

Boshqa bir manbaada keltirilishicha, keyinchalik vatanlariga qaytgan arman qochoqlari Tojikistonda ro`y berayotgan voqealar Sumgait va Boku hodisalari bilan deyarli bir hil ssenariyda ekanligini ma`lum qilishgan. Qochoqlar, shuningdek, tojiklar armanlarga nisbatan doimo xushmuomala bo`lishgani va o`sha mash`um kunlarda ularni ekstremistlardan himoya qilishganini ta`kidlab o`tgandilar. Yana bu manbaada Ozarbayjon Xalq Fronti (OXF) vakillari fuqarolar urushi boshlanishi arafasida Tojikistonga kelib, xalq orasida anti-arman tashviqotlarini o`tkazganliklari borasida ham faktlar keltiriladi. OXF vakillari yoshlar o`rtasida pul va narkotik moddalar tarqatib, ularni millatchilikka (avvalo armanlarga qarshi) hamda Islomiy davlat qurishga da`vat qilishgan.

Dushanbedagi ommaviy tartibsizliklar Tojikistonda ikki yildan keyin boshlangan va 80 mingdan ortiq insonni hayotdan olib ketgan fuqarolar urushining o`ziga xos muqaddimasi sanaladi.

Tojikistondagi ziddiyat ildizlari ham ichki va ham tashqi omillarga borib taqaladi. 28-aprel 1992-yilda Afg`onistondagi hokimiyat mujohiddinlar qo`liga o`tdi va atigi bir necha kundan so`ng, ya`ni 5-may kuni Tojikistonda fuqarolar urushi boshlanishiga ishora bergen ilk o`qlar otildi. Prezident Gvardiyasi a`zolari shu kuni Dushanbedan 20 km uzoqlikdagi Yavan va Leniniskiy qishloqlarida prezidentni qo`llash uchun Ko`lobdan Dushanbe tomon yo`l olgan tarafdoरlar yo`lini to`sish uchun chiqqan mahalliy namoyishchilarga qarshi o`t ochishdi. Muholifatchilar, o`z navbatida prezident saroyi va televide niye nazoratini qo`lga olishdi. Ular qon to`kishni bas qilish va Leniniskiy-Yavanda prezident soqchilari tomonidan otilgan tinch namoyishchilar jasadlari muhrlangan video yozuvlarni milliy televide niye orqali xalqqa namoyish etib, adolatni tiklashni talab qilishdi. Tez orada Dushanbe bo`ylab muholifat va hukumat tarafdoरlar o`rtasida ko`cha janglari boshlanib ketdi. Muholifat liderlari Nabihev va Kenjayevlar o`g`irlanib, Milliy Xavfsizlik Qo`mitasi binosiga yashirib qo`yiolgani to`g`risida xabarlar tarqaldi. Muholifat prezident soqchilarini xarbiy kiyimda, tez yordam mashinasiga mingan holda, shahar bo`ylab terroristik aktlarni amalga oshirayotganlikda aybladi. Shu kuni tunda Dushanbega zirhli xarbiy texnika kiritildi va 5 yilga cho`zilgan fuqarolar urushi boshlanib ketdi.

Xulosa shuki, Tojikistonda diniy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi 1992-1997 yillarda bo`lib o`tgan fuqarolar urushiga borib taqaladi. Ammo o`z o`rnida Tojikiston

Markaziy Osiyoda davlat organlari ro‘yxatidan o‘tgan yagona diniy-siyosiy partiya Islom Uyg‘onish Partiyasiga (“Hizbi nahvati islomii Tochikiston”) ega davlat hisoblanar edi. 2010 yilda kechgan parlament saylovlari Islom Uyg‘onish partiyasi rasman e‘lon etilishicha 7 foiz ovoz olishga muvaffaq bo‘lgan.

2015 yil bahorgi parlament saylovlarida partiya biror o‘rinni egallay olmagach, unga qarshi harakatlar boshlangan edi. Rasmiy va norasmiy nashrlar, davlat telekanallarida tanqidiy chiqishlar avj oldi. Shu davrda ham u hukumatga muxolif eng faol siyosiy harakat hisoblanib, 50 mingga yaqin a’zosi bor. Partiya lideri Muhiddin Kabiri y saylovdan so’ng chet el safariga chiqib ketgach, unga qarshi jinoiy ish qo’zg’atilgani haqida mish-mishlar tarqaldi. Shu orada Tojikiston Adliya vazirligi ommaviy axborot vositalarida Islom uyg‘onish partiyasining shahar va nohiyalardagi boshlang’ich tashkilotlari tarqalib ketgan, endi bu partiya qonuniy faoliyatga ega emas deb ogohlantirish berdi.

Keyinchalik ushbu partianing siyosiy faoliyati taqiqlangan. Ammo 2015-yil sentabroyining boshlarida bu paytgacha mamlakatda faoliyat qilib kelgan, hatto parlamentda (“Majlis Oli”da) o‘z vakillariga ega bo‘lgan Islom uyg‘onish partiyasi Oliy sud tomonidan ekstremistik va terroristik tashkilot, deb topildi va uning faoliyati taqiqlandi.

Tojikiston Islom Uyg‘onish partiyasi 1991 yilda (ba’zi manbalarda yashirin tuzilgan davri 1978 yil, oshkora davri 1991 yil deb ko‘rsatiladi) tashkil etilgan.

1991-1993 yillarda Moxammadsharif Ximmatzoda,

1993-2006 yillarda Said Abdullo Nuri (aynan u rahbarlik qilgan davrda Imomali Rexmon bilan 1992-1997 yillari bo‘lib o‘tgan fuqarolar urushini tugatish to‘g‘risida sulh imzolangan edi),

2006 yildan 2015 yilgacha Muhiddin Kabiri y boshqargan.

Bir necha kunlik harbiy amaliyotlar natijasida Romit darasida yashiringani aytilgan Abduhalim Nazarzoda va uning tarafdorlari yo‘q qilingani xabar qilindi. bundan tashqari partiya 2010 yil Rashtdagi, 2012 yil Badaxshondagi voqealarga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri asloqador deb topildi va Tojikiston Bosh prokururaturasi Tojikiston Oliy mahkamasiga so‘rov yubordi. Bosh prokururataning Islom Uyg‘onish partiyasi faoliyatini taqiqlash va uni terrorchi guruh sifatida qayd etish so‘rovini hkama tamonidan qondirildi.

Mahkama qaroriga binoan partianing rasmiy websahifasi, “Najot” gazetasi hamda ayni partiyaga tegishli bo‘lgan uchta journalni chiqarish ham to‘xtatiladi. Shuningdek, mahkama Tojikiston hududida Islom Uyg‘onish partiyasining audio va video mahsulotlari, kitoblari va varaqalarini tarqatishni ham taqiqlangan. Bunga qo‘sishma, Tojikiston Islom Uyg‘onish partiyasiga aloqador har qanday materiallarni mamlakatga olib kirish ham man qilingan.

Ushbu partiya Tojikistonda terrorchi tashkilot sifatida tan olinganidan keyin SHHTdagi terroristik, ekstremistik va separatistik tashkilotlar ro'yxatiga ham kiritilgan.

2022-yilda RF Oliy sudi tamonidan ham ushbu tashkilot terrorchi deb e'lon qilindi. Partiyaning 2006-yildan to bugungi kungacha yetakchisi hisoblangan Muhammad Kabiriy va bir nechta partiya a'zolari 2015-2018 yillar davomida Interpol tamonidan ham qidiruvda bo'lgan.

Jurnalist Ma'mur Yusufzod fikricha, bugungi kunda respublikada aslida diniy siyosiy partiyaga ehtiyoj yo'q.

"Huquq" gazetasi asoschisi Tursunali Aliyev deydiki, islom dini partiyaga muhtoj emas.

"Partiyaning o'z ustavi, yo'nalishi bo'ladi. Dinning yo'nalishi Qur'onlarda, hadislarda belgilab berilgan, uni bular qanaqasiga ustaviga kiritadi? Har xil guruuhlar bor, bir paytlar "Rostaxez" guruhi paydo bo'lib, xalqni bezovta qilgandi. Undan keyin "Hizb-u-Tahrir"ga kirganlar qancha qotilliklarni sodir qildi. Din o'zi oliv e'tiqod, uni partiyaga yoki qandaydir boshlang'ich tashkilotlarga ehtiyoji yo'q. Har bittasi o'zicha uni qayta muhokamaga qo'yishi mumkin emas, tahrir qilib bo'lingan, muhokama qilib bo'lib, islomda hamma urfiyatlar qabul qilib bo'lingan narsa. Uni har kim o'zicha unaqa yo'nalishlarga solaversa, diniy e'tiqodlar ham parchalanadi, jamiyat ham parchalanadi", - deydi Aliyev.

Ammo bu faktlar Tojikistonni dinga qarshi mamlakat ko'rinishida qarshimizda gavdalantirmasligi lozim, aksincha zamonaviy Tojikiston dinning siyosiy tus olishi va siyosat quroli bo'lishiga, e'tiqod va u bilan bog'liq masalalar shaxslarning erkin tanlovi bo'lishiga intilmoqda. Zero mamlakat Prezidenti Imomali Rahmon aytganidek: "Ayrim guruuhlar va shaxslar demokratik huquqlar va ozodlikni su'iste'mol qilishmoqda. Ular o'z siyosiy maqsadlariga dinni dastak qilib erishish harakatidalar. Jamiyat orasida bo'linish va norozilikni urchitmoqdalar, biz diniy tozalik va musulmonlarning haqlarini himoya qilamiz degan bahonalar bilan yoshlarimiz ongini zaharlamoqdalar... Davlatning tinchligi va xavfsizligiga rahna solishmoqda. Ular hatto jamiyatimiz taraqqiyot yo'lini o'zgaritishmoqchi...". ushbu hol albatta mamlakatda siyosiy hokimiyat ishiga ham halaqit qilib, mintaqada yana bir notinch yurt va uning zaminuda 2- bor fuqarolar urushi alangasini yoqmasligi uchun bu masalaga juda jiddiy e'tibor qaratish zaruriyatini ko'rsatadi. "Biz diniy masalalar va e'tiqod erkinligiga befarq qarab turolmaymiz. Biz dinimizning pokligini saqlab qolishimiz va Islomni siyosatlashtirish urinishlarida siyosiy hushyor bo'lishimiz kerak. Chunki, ba'zi islomiy davlatlarda tarixiy va diniy ziddiyatlar kuchayib ketdi va ular butun Islom dunyosiga xavf solmoqda..." deya qo'shimcha qilgan Imomali Rahmon.

Shu o'rinda haqli savol bugun Tojikistonda din erkinligi qay ahvolda?

Tojikistonda din erkinligi— [Tojikiston](#) konstitutsiyasida belgilangan. Va o‘z o‘rnida Mamlakat qonun bilan dunyoviy hisoblanadi. Tojikiston Konstitutsiyasiga ko‘ra, din davlatdan ajratilgan.

Mamlakatda har qanday diniy tashkilot va birlashmalar faoliyat yuritishi uchun avval davlat qaydidan o‘tishi kerak. Hatto kichik masjidlar ham Tojikiston hukumati qoshidagi Diniy ishlar qo‘mitasida alohida diniy tashkilot sifatida ro‘yxatdan o’tadi. Birgina Xo‘jand shahrida 48 ta diniy birlashmalar mavjud.

Tojikiston siyosati islom ekstremizmi bilan bog‘liq xavotirni aks ettirib bergan edi, bu esa aholining ko‘p qismiga tegishli hisoblanadi. G‘arb mamlakatlari, Koreya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan xristian Missionerlik missionerlari oz sonli bo‘ladi. Avvalroq DRA mustaqillikka erishgandan beri nasroniylikni qabul qilganlar sonini 3000 kishigacha hisoblagan edi. Ushbu hisobot qamrab olgan davrda islomiy missionerlar guruhlari ham mamlakatga tashrif buyurdi. Tojikiston konstitutsiyasi diniy e’tiqod erkinligini ta’minlaydi va hukumat amalda bu huquqni umuman hurmat qiladi, biroq hukumat diniy muassasalar faoliyatini ochiqdan-ochiq siyosiy bo‘lib qolmasligi yoki „ekstremistik tendentsiyalarini“ qo‘llab-quvvatlamasligi uchun nazorat qiladi va ba’zi mahalliy ma’muriy idoralar „dunyoviy davlat“ atamasini hukumatdan dinga nisbatan tarafkashlikni talab qilish uchun talqin qiladi.

Qonuni Jumhurii Tojikiston „Dar borai din va tashkilothoi dini“ 1-dekabr 1994-yil qonun qabul qilgan. Qonun fuqarolarning o‘z dinini tanlash va o‘zgartirish va o‘zi xohlagan dinga e’tiqod qilish huquqini beradi. Qonun shuningdek, shaxslarning prozelitizm huquqini ham himoya qiladi. Qonun diniy erkinlikni himoya qiladi.

Hukumat „[Hizb ut-Tahrir](#)“ ekstremistik islomiy siyosiy tashkilotini ta’qiqlaydi va uning a’zolari qo‘poruvchilik uchun hibsga olinadi va qamoqqa olinadi.

Tojikiston hukumatining xabar berishicha, 2006-yilda 61 kishi XT a’zosi sifatida hibsga olingan va sudlangan. XT a’zolari 12 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinishi mumkin.

2017 yili Tojikistonda ekstremistik guruhlar, jumladan, “Salafiya” va “Islom davlati” tashkilotlariga a’zolik ayblovi bilan 220 dan ortiq odam huquq-tartibot organlari tomonidan hibsga olingan.

Tojikistonda “Iegovo guvohlari” faoliyati ekstremistik tashkilot sifatida taqilangan va yahudiylarning yagona sinagogi haligacha ro‘yxatga olinmagan.

2017 yili Tojikistonda qariyb 2 ming masjid madaniy va jamoat muassasalari ixtiyoriga berilgan va hozirda mamlakatda 3900 (ba’zi manbalarga ko‘ra 4000) masjid rasman faoliyat ko‘rsatmoqda.<sup>2</sup>

Tojikistonda e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan islom dinidan so‘ng ikkinchi o‘rinda nasroniy dini turadi. Mamlakat bo‘ylab bu dinning katolik, pravoslav va

<sup>2</sup> Tojikistonda Din erkinligi. uz.m.wikipedia.org // 2023 y. <https://uz.m.wikipedia.org>

protestant yo‘nalishlarining har biriga qarashli bo‘lgan o‘nlab diniy tashkilotlar rasmiy qaydga olingan. Xo‘jand shahridagi Muqaddas Mariya Magdalina pravoslav cherkovi ruhoniysi Yuriy Tarasovning aytishicha, bu din rus imperiyasi Markaziy Osiyonil mas’ullari bilan etgan XVIII asrda kirib kelgan.

1863-yili Eronda paydo bo‘lgan bahoiy dini Tojikistonda rasman faoliyat qiladi. Poytaxt Dushanbe va mamlakatning bir necha shaharlarida bu dinga qarashli bo‘lgan birlashmalar rasman qaydga olingan. “Bahoiy dini bir necha shahar, qishloq va shaharchalarda faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. Jumladan, Xo‘jand shahrida ham. Xudoga shukur, bahoylar bugun ibodatda ozod va erkin o‘z e’tiqodlariga amal qilishadi. Bizning baxtimiz, dunyoviy davlatda istiqomat qilishimizda. Boshqa dinlar bilan munosabatlarimiz haqida aytadigan bo‘lsak, oramizda o‘zaro tushunish mavjud. Bahoiy dinining asosiy maqsadi barcha xalqlarning birligidir. Odamlarning dini, irqi, mazhabidan qat’i nazar barcha xalqlarning birligini e’tirof etadi. Chunki kichik-kichik farqlar ham bora-bora tafovutlarga, farqlarga olib keladi. Bahoylar birlikni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilishadi”, – deydi bahoiy dinining Xo‘jand shahridagi mas’ullaridan biri.

Diniy birlashmalarni alohida qonun tartibga oladi. Tojikiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar haqida”gi qonuni. Bu qonunga ko‘ra, diniy birlashmalar qaydga olinadi va amal qiladi. Diniy birlashmalarga oid barcha masalalarni shu qonun tartibga soladi.

Diniy Ekstremist va terroristlar tamonidan Tojikistonda amalga oshirilgan hunrezliklar:

- 1994 yil Dushanbe aeroportidagi terakt natijasida 201-moto o‘qchi diviziyasining 2 nafar harbiy xizmatchisi o‘ldirilgan;
- 1994 yil 22 noyabr kuni Dushanbe shahrida Rossiya Qurolli kuchlariga tegishli avtobus granatomyotdan o‘qqa tutilishi natijasida haydovchi halok bo‘lgan;
- 1994 yil 8 dekabr kuni terroristlar Tojikiston- Britaniya oltin koniga uyushtirilgan hujum natijasida 4 nafar xodim, xususan, Buyuk Britaniya va Janubiy Afrika fuqarolari olib qochilgan. BMT, Qizil xoch hamda Britaniya diplomatlari bilan olib borilgan muzokaralar natijasida shu yilning 28 dekabrida asirlar ozod qilingan;
- 1994 yil 20 dekabr kuni Tojikiston Respublikasida terrorchilar Fayzobod va Garm avtoyo‘nalishidagi avtoka- lonnalarni to‘xtatib, 23 nafar shaxs, jumladan, BMTning 7 nafar harbiy kuzatuvchilarini asirga olgan. Asirlarni ozod qilish uchun hibsga olingan bir necha jangarilarni ozod qilish talabi qo‘yilgan.<sup>3</sup>

Xulos qilib shuni aytish mumkinki, Tojikistonda bugungi kunda diniy sohaning kuchli davlat nazoratida ekanligining asl sabab va mohiyatlari bu nafaqat mamlakat

<sup>3</sup> Diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy- ma’rifiy asoslari” o‘quv qo‘llanma / J.Karimov va b.r / Toshkent -2021-y.

balki mintaqqa xavfsizlikiga xavf solayotgan kuchlarning ta'sirida bo'lmoqda. Hukumat tamonidan olib borilayotgan barcha harakatlar asli, dunyoviy davlatning Konstitutsiyaviy tizimini saqlab qolish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Tojikistondagi bugungi kundagi diniy siyosiy vaziyatning o'ziga xosliklari quyidagilardir:

- Tojikiston konstitutsiyaviy davlatdir;
- mamlakatda diniy soha konstitutsiya va qonunlar bilan davlatdan ajratilgan;
- mamlakatda kuchli siyosiy nazarot mavjud (barcha sohalarda);
- davlat havfsizligi masalasida konstitutsiyaviy tuzumni saqlab qolish, aynan diniy ekstremist va terroristlardan himoyalanish uchun zarur hollarda zaxira kuchlarini safarbar qilishga va xalqaro yordam olishga tayyor;
- vijdon erkinligi va e'tiqod erkinligi qonunlar bilan kafolatlangan hamda diniy tashkilotlar davlat organlari ro'yxatidan o'tgach faoliyatni emin- erkin yo'lgaga qo'yishlari mumkin;
- bir nechta din vakillari (asosan 3 ta) bugungi kunda tinch va totuv hayot kechirmoqdalar, albatta diniy bag'rikenglik tamoyili asosida.

### Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2023.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2000 y.
3. Tojikistonda Din erkinligi.// uz.m.wikipedia.org. 2023 y. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. Tojikiston Afg'onistondagi vaziyat tufayli KXSHTdan yordam so'radi.// gazeta.uz . 8.07.2021. <https://www.gazeta.uz>
5. Diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" o'quv qo'llanma/ J.Karimov va b.r / -T.: 2021-y.
6. "Islom ensiklopediyasi"/ Z.Husniddinov tahriri ostida/ "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-2004 y
7. "Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terroristik uyushmlar" ma'lumotlar to'plami/ K.Shermuhammedov va J.Karimov / Toshkent-2015 y.